



XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 18-iyun

VII-23-79-3-50-K/26

Zafarobod tumani

Zafarobod tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha tariflar belgilash to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Zafarobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 387-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tumani hokimligining 2026-yil 20-aprelda 03-23-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Zafarobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik sub'ektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Zafarobod tuman hokimining o'rinbosari J.Sattarov, Zafarobod tumani Obodonlashtirish boshqarmasi (Sh.Zokirov)ga mazkur qaror ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu qaror "Zafar yo'lidan" gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingandan uch oyda kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha № doimiy komissiyasi (O'.Bayjanova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



**ABDULLAYEV
JASUR
SAYFIDDINOVICH**

Xalq deputatlari Zafarobod tumani
Kengashining
2026-yil 18-iyundagi
VII-23-79-3-50-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Zafarobod tumanida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman
markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan
shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni
obodonlashtirish xizmatini ko'rsatganlik bo'yicha belgilangan tariflar
narxi to'g'risida**

MA'LUMOT

Xizmat ko'rsatish turi	O'lchov birligi	Taklif miqdori (so'm)
1	2	3
Xo'jalik subyektlar (yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlar, korxona- tashkilotlar)dan qattiq maishiy chiqindilarni olib borib joylashtirish (QQS bilan)	Kub (m ³)	67200